

## 2017 yil birinchi chorakda «O‘zdonmahsulot» AK tizim korxonalarida iqtisodiy islohotlarning borishi va ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish yakunlari

04.04.2017

Joriy yilning 14 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2017 yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy dasturining eng muhim ustuvor vazifalariga bag‘ishlangan majlisida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonlaridan iqtisodiyotda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish bo‘yicha belgilab berilgan ustuvor vazifalar asosida kompaniya va tarkibdagi korxonalar iqtisodiy o‘shishning yuqori sur‘atlarini ta‘minlash, yangi quvvatlarni ishga tushirish, mavjudlarini zamonaviy yangi texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish, tarmoqni diversifikatsiya qilish, import o‘rnini bosadigan hamda eksport qilishga yo‘naltirilgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish borasida keng qamrovli ishlarni tashkil etgan.

Hisobot davrida tarmoqda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish natijasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, moliyaviy ahvolni yaxshilash, davlat byudjeti va byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarga to‘lovlarni amalga oshirishda ijobiy natijalarga erishildi.

O‘tgan yilning shu davriga nisbatan mahsulot ishlab chiqarish hajmi quyidagilarni tashkil etdi: 2017 yilning birinchi choragida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o‘shish sur‘ati 109,6 foizni, xalq iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish o‘shish sur‘ati 110,0 foizni tashkil etdi.

Mahsulot turlari bo‘yicha ishlab chiqarish natura ko‘rinishida o‘shish sur‘ati: un ishlab chiqarish 110,2 foizni, omixta yem 100,8 foizni, non va non mahsulotlari 106,7 foizni va makaron mahsulotlari ishlab chiqarish 101,7 foizni tashkil etdi.

Tezkor ma‘lumotlarga asosan o‘tgan yilga nisbatan, hisobot davrida tarmoqda 102,1 foiz miqdorida foyda olinishi kutilmoqda. Tarmoqda zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalar mavjud emas. Byudjet va byudjetdan tashqari jamg‘armalarga to‘lovlar o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 103,9 foizni tashkil etilish kutilmoqda.

2017 yilning birinchi choragida jami 283 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi, bu esa rejaga nisbatan 195,2 foizni (tasdiqlangan dasturga asosan 145 ta yangi ish o‘rinlari yaratilishi belgilangan) tashkil etdi.

2017 yilning birinchi choragida tashqi savdo kompaniyalar orqali mahsulot eksporti o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 113,7 foizni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 23 dekabrda PQ-2697-sonli qaroriga asosan 2017 yilda 10 ta investitsiya loyihalari, jumladan 1 ta bug‘doy yormasi ishlab chiqarish sexi, 1 ta ekstrudirlangan omixta yem sexi, 1 ta polipropilen qop ishlab chiqarish sexi, 1 ta yangi tegirmon qurish va 6 ta tegirmon sexlarini modernizatsiya qilish belgilangan.

Korxonalarda yangi quvvatlarni ishga tushirish, mavjudlarini modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi:

«Qoraqalpoqdonmahsulotlari» (Nukus un zavodi)da kunlik quvvati 130 tonnalik, «Samarqanddonmahsulotlari»da kunlik quvvati 300 tonnalik, «Oxangaron don» (Bekobod un filiali)da kunlik quvvati 50 tonnalik, «Dunyo-M»da kunlik quvvati 300 tonnalik, «Quva don mahsulotlari»da kunlik quvvati 150 tonnalik, «Andijondonmahsulotlari»da kunlik quvvati 250 tonnalik tegirmon sexlarini modernizatsiya qilish uchun texnologik uskunalarni xarid qilish maqsadida shartnomalar imzolandi.

«Toshkentdonmahsulotlari» tomonidan kunlik quvvati 5 tonnalik bug‘doy yormasi va «SHo‘rchi don mahsulotlari»da kunlik quvvati 30 tonnalik ekstrudirlangan omixta yem sexini tashkil qilish uchun texnologik uskunalarni xarid qilish maqsadida shartnoma imzolandi.

«Uchqo‘rg‘on don mahsulotlari»da kunlik quvvati 20,0 ming dona polipropilen qop ishlab chiqarish sexini tashkil qilish uchun texnologik uskunalarni xarid qilish maqsadida shartnoma imzolandi.

«Qamashi DQQ»da kunlik quvvati 100 tonnalik yangi tegirmon sexini qurish uchun texnologik uskunalarni xarid qilish maqsadida shartnoma imzolandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 6 yanvardagi PQ-2716-sonli qarorida 3 ta loyiha ishga tushirilishi belgilangan, jumladan: «Taxitosh don mahsulotlari», Oqtosh don va «Xonqa don mahsulotlari» korxonalarini tomonidan meva va sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash sexlarini tashkil qilish maqsadida mavjud foydalanilmayotgan bino-inshootlarda qurilish ta‘mirlash ishlari boshlangan. Texnologik uskunalarni tanlash bo‘yicha xorijiy davlatlar bilan muzokaralar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 14 dekabrda PQ-2264-sonli qaroriga asosan 1 ta loyiha, jumladan «Qashqadaryodon-mahsulotlari»da kunlik quvvati 120 tonnalik tegirmon sexi ishga tushirilishi belgilangan, texnologik uskunalarni sotib olish uchun shartnoma imzolangan. Uskunalarning bir qismi keltirilgan bo‘lib qolgan qismi aprel oyining yakunigacha keltirilishi rejalashtirilgan hamda tegirmon sexi binosida qurilish ishlari yakunlangan.

Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 25 apreldagi 01-03-05-17-sonli yig'ilish bayoniga asosan 4 ta jumladan 3 ta urug' saralash sexi va 1 ta arpa yormasi ishlab chiqarish sexlarini tashkil qilish belgilangan.

«Dunyo-M», «Uchqo'rg'on don mahsulotlari» va «Toshkentdonmahsulotlari» korxonalaridan urug'lik saralash sexlarini tashkil qilish maqsadida Germaniyaning «Petkus» kompaniyasida ishlab chiqarilgan zamonaviy texnologik uskunalar keltirilib, hujjatlar bo'yxonada rasmiylashtirilmoqda.

«Jomboy don mahsulotlari» tomonidan arpa yormasi ishlab chiqarish sexini tashkil qilish maqsadida Janubiy Koreyaning «DAYVON» kompaniyasida ishlab chiqarilgan zamonaviy texnologik uskunalar korxonaga keltirildi. Joriy yilning aprel oyida montaj ishlari boshlanadi.


Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 29 maydagi 142-sonli qaroriga asosan «Surxondaryodonmahsulotlari»da kunlik quvvati 300 tonnalik tegirmon sexini qurish belgilangan. Texnologik uskunalarni sotib olish uchun shartnoma imzolangan.

Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 25 yanvardagi 01-21-12-2-sonli yig'ilish bayoniga asosan 2 ta jumladan, «Taxitosh don mahsulotlari» tomonidan Shumanay tumani markazida «Shumanay Dokanon» non va makaron ishlab chiqarish sexi va korxonaga qarashli «Qorabayli guruch» filialida guruch ishlab chiqarish sexi ishga tushirildi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi» asosida «O'zdonmahsulot» kompaniyasi boshqaruv raisining virtual qabulxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. Yuridik va jismoniy shaxslardan kelib tushadigan murojaatlarda ko'rsatilgan muammolarni qisqa muddatlarda hal qilish bo'yicha kompaniyaning markaziy apparatida ishchi guruh tashkil etilgan. Qabulxonaga kelib tushgan murojaatlar ijrosi ijobiy hal qilinmoqda.

«O'zdonmahsulot» aksiyadorlik kompaniyasi va tarkibdagi korxonalar tomonidan «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi»da belgilangan topshiriqlarning bajarilishini, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va samaradorligini oshirish, xom-ashyo resurslarini tejash, ortiqcha xarajatlarni qisqartirish ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini pasaytirish, mahsulotlar sifatini yanada yaxshilash, yangi texnologiyalarni joriy etish, mavjudlarini zamonaviy texnologiyalar asosida modernizatsiyalash va aholini bandligini ta'minlash bo'yicha ishlar tizimli davom ettiriladi hamda belgilangan muddatlarda amalga oshirilishi ta'minlanadi.


### 2013-2017 yillarda makaron mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi



### 2013-2017 yillarda non va non mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi



### 2013-2017 yillarda omuxta yem mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi



### 2017 yil birinchi choragidagi ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'sish sur'ati %
Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	110,6
Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish	104,3
Un	111,6
Omuxta yem	101,0
Non va non mahsulotlari	119,0
Makaron mahsulotlari	110,4

### 2017 yil birinchi choragida dasturga asosan yaratilgan qo'shimcha ish o'rinlari

	Soni	%
Kasanachilik asosida	413	129,9
Investitsiya dasturi bo'yicha	10	100
Tarmoq dasturi bo'yicha	38	380
Jami yaratilgan ish o'rinlari	461	136,4